

**Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo'shiqchilari
tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo'shiqchilari tanlovini (keyingi o'rinlarda – tanlov) o'tkazish, muddati, shartlari va ishtirokchilarga qo'yilgan talablar hamda g'oliblarni taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning asosiy tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hisoblanadi.

2-bob. Tanlov maqsadi

3. Tanlov maqsadi quyidagilardan iborat:

Tanlov milliy estrada san'atimiz asoschilaridan biri, zamonaviy o'zbek madaniyatini dunyo miqyosida keng targ'ib etish, ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shgan buyuk san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov ijodiy merosini yosh avlodga yetkazishga;

yoshlar orasida estrada qo'shiqchilik san'atini yanada yuksaltirish, mohir ijrochilarni kashf etishga;

estrada qo'shiqchiligini yuksak darajaga ko'tarish, milliy san'atimizni dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish hamda ularning ijodini keng targ'ib qilishga;

estrada san'ati madaniyatini, estrada ijodkorlarining professional malakasini oshirish, yosh san'atkorlarning o'z iqtidorini to'la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi.

3-bob. Tanlovda ishtirok etish shartlari

4. Tanlovda O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalarining talabalari, o'qituvchilari, bolalar musiqa va san'at maktablarining o'qituvchilari, badiiy va ijodiy jamoalar xodimlari ishtirok etishi mumkin.

5. Tanlovda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan ijodkorlar ishtirok etadi.

6. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan ijrochilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

tanlovda ishtirok etish uchun ma'lumotnoma (rezyume);

3 x 4 sm o'lchamdagi 2 ta va 9 x 12 sm o'lchamdagi 2 ta rangli fotosurat;

ijro dasturining to'liq ro'yxati (*she'r muallifi va bastakori ko'rsatilgan holda*);

7. Hujjatlarni qabul qilish tanlov boshlanishidan **bir kun** oldin to'xtatiladi, muddatidan kech taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi.

8. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ularda qayd etilgan ma'lumotlar to'g'ri hamda haqiqiyliги bo'yicha ishtirokchilar shaxsan javobgar hisoblanadi.

9. Tanlovda g'olib bo'lgan ishtirokchilar keyingi ikki yil davomida mazkur tanlovda ishtirok eta olmaydi.

10. Ishtirokchilar tomonidan qo'shiqlar to'liq jonli ijro etiladi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish bosqichlari, va muddatlari

11. Tanlov to'rt bosqichda o'tkaziladi.

12. Har bir saralash bosqichlarida eng yuqori ball to'plagan ellik (50) foiz ishtirokchilar keyingi bosqichga tavsiya etiladi.

13. Tanlovning barcha bosqichlari Toshkent shahrida o'tkaziladi.

14. Tanlov ishtirokchilari Botir Zokirov repertuaridan o'rin olgan qo'shiqlarni ijro etishi shart.

5-bob. Tanlov ishtirokchilarini baholash mezonlari

15. Tanlovning saralash bosqichlarini kamida 3 (uch) nafardan iborat Hakamlar hay'ati ko'rib chiqadi va baholaydi.

16. Tanlov ishtirokchilari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

ijro mahorati;

professional tayyorgarligi;

repertuar saviyasi (musiqa, matn);

yuksak badiiy did bilan yondashuvi;

sahna madaniyati.

17. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilarga qo'yiladigan ballar baholash mezonlariga ko'ra, har bir mezon bo'yicha alohida maksimal **5 balli** tizim asosida baholanadi hamda har bir ishtirokchi uchun eng yuqori ball **25 ball** hisoblanadi.

18. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilarga qo'yilgan ballar teng bo'lib qolganda, hakamlar hay'ati raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

19. Tanlov yakuniy natijalari hakamlar hay'atining yozma qarori bilan rasmiylashtiriladi.

20. Ishtirokchilarni baholash jarayonida hakamlar hay'ati tomonidan qo'yilgan ballar qat'iy hisoblanadi, o'zgartirilmaydi, e'tirozlar (appelyatsiya) qabul qilinmaydi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

21. Ishtirokchilarni baholashda hakamlar hay'ati mustaqildir.

6-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

22. Tanlovda eng ko'p umumiy ball to'plagan ishtirokchilar orasidan hakamlar hay'atining qaroriga asosan tanlov yakuniy natijalariga ko'ra **gran pri** va 1-, 2-, 3-o'rin sovrindorlari aniqlanadi.

23. Tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra **gran pri** va 1-, 2-, 3-o'rinni egallagan ishtirokchilar xorijiy davlatlarda tashkil etiladigan "O'zbekiston madaniyat kunlari" hamda respublika miqiyosida o'tkaziladigan boshqa nufuzli davlat tadbirlariga keng jalb etiladi.

24. Tanlovning **gran pri** va 1-, 2-, 3-o'rin sovrindorlari "Navo" musiqiy telekanalida bitta mualliflik asarini bepul efirga uzatish huquqiga ega bo'ladi.

25. Tanlovning **gran pri** va 1-, 2-, 3-o'rin sovrindorlari tashkilotchilar tomonidan statuetka, diplom va quyidagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

gran pri – bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari miqdorida pul mablag'lari;

1-o'rin – bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari miqdorida pul mablag'lari;

2-o'rin – bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari miqdorida pul mablag'lari;

3-o'rin – bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida pul mablag'lari.

7-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazishni moliyalashtirish

26. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Bunda, tanlov g'oliblariga to'lanadigan pul mukofotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

27. Tanlov ishtirokchilarining tanlov o'tkazilishi belgilangan hududga kelib-ketishi, mehmonxona va ovqatlanish xarajatlari tanlovda ishtirok etish uchun yuborayotgan tashkilot hamda muassasalar tomonidan yoki homiylik xayriyalari hisobidan qoplanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

28. Mazkur Nizomga tashkiliy-ijodiy guruh tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

29. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.